

TARJIMADA MUROJAAT BIRLIKLARINING QO‘LLANILISHI

Nurullayeva Zaxro*ToshDO‘TAU ingliz tarjima**nazariyasi va amaliyoti 4-kurs talabasi*nurullayevazaxro33@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi murojaat birligi hisoblangan “miss”, “mister”, “missis” so‘zlari va ularning o‘zbek tili tarjimasida aks ettirilishi holati yuzasidan mulohaza yuritilgan. Yuqoridagi so‘zlarning so‘zlashuv, rasmiy va ilmiy uslubda qo‘llanilishi jihatidan farqlari ko‘rib chiqilgan. Shu bilan bir qatorda murojaat birliklarining o‘xshash va mushtarak jihatlari, gender neytrallashtirish masalasi yuzasidan misollar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: gender neytrallashtirish, pragmatik ekvivalent, norasmiy murojaat birligi.

Annotation: This article discusses the English forms of address “miss,” “mister,” and “missis,” and how they are rendered in Uzbek translation. It examines the differences in how these terms are used in conversational, formal, and academic styles. In addition, the article provides examples related to the similarities and shared features of forms of address, as well as the issue of gender neutralization.

Key words: gender neutralization, pragmatic equivalent, informal form of address.

Muloqot jarayonida murojaat birliklari nutqning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, ular so‘zlovchi hamda tinglovchi o‘rtasidagi hurmat, ijtimoiy maqom va kommunikativ maqsadni ifodalashga xizmat qiladi. Turfa tillarda murojaat vositalari turlicha shakllangan bo‘lib, ularning qo‘llanishida madaniy, ijtimoiy va stilistik omillar muhim rol o‘ynaydi.

Murojaat birliklari faqat tilning leksik jihatini emas, balki jamiyatning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va kommunikativ xususiyatlarini aks ettiruvchi

vosita hisoblanadi. Ularning o‘rinli qo‘llanilishi muloqot samaradorligini oshiradi, noto‘g‘ri tanlanishi esa kommunikativ holatga salbiy ta‘sir o‘tkazishi mumkin.

Ingliz tilida muloqot birliklari gender, norasmiy va rasmiy muloqot jihatidan farqlanishi kuzatiladi. Shu bilan bir qatorda, kasbi va unvonini ifodalovchi so‘zlar ham ba‘zan murojaat ma‘nosini ifodalashi mumkin.

Ingliz tilida gender munosabati muloqot jarayonida ham alohida ahamiyat kasb etuvchi jihat sanaladi. Shu jumladan, murojaat ifodalovchi so‘zlar faqat erkak va ayol deb emas, nikoh holati jihatidan ham farqlanishi mumkin, ya‘ni:

Mr.	—	erkaklar	uchun	neytral;
Mrs.	—	turmush qurgan	ayollar	uchun;
Miss	—	turmushga chiqmagan	ayollar	uchun;
Ms.	— nikoh holatidan qat‘i nazar ayollar uchun neytral shakl.			

Ushbu so‘zlarning o‘zbek tilida tarjimasi qisman farqlanishi holatlari yuzaga kelishi mumkin. Ya‘ni o‘zbek tilida aynan bu birikmalarga ekvivalent bo‘la oladigan aniq bir so‘z mavjud bo‘lmaganligi sababli, tarjimada ularni ifodalash nutq uslubi jihatidan farqlanishi holati yuzaga keladi.

Rasmiy uslubdagi matnlarni tarjima qilish jarayonida hurmat ifodalash ma‘nosida ushbu birikmalar quyidagicha tarjima qilinadi:

- *Ladies and gentlemen! I’m truly delighted to extend my congratulations to you with the 80th anniversary Session of the United Nations General Assembly.*

Tarjimasi:

Xonimlar **va** **janoblar!**
Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yubiley anjumani – 80-sessiyasi bilan sizlarni qutlashdan mamnunman.¹

Xonimlar va janoblar so‘zi tarjimada ekvivalent sifatida asosan rasmiy va publisistik matnlarda qo‘llaniladi. So‘zlashuv uslubida esa bu so‘zlarning tarjimasi mutarjim tomonidan tamomila boshqacha keltirib o‘tiladi. Aynan shu jarayonda

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi.

pragmatik ekvivalent berish holati kuzatiladi, ya'ni so'zning aynan muqobil varianti bo'lmaganligi bois asl matn o'quvchiga qanday ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tarjima xuddi shunday ta'sir, niyat va kommunikativ maqsadga ega bo'lishi, faqat aytilgan narsa emas, balki qanday aytilganligi va tushunilishiga e'tibor qaratish hisobga olinadi.